

## **PSIXOLOGIK TADQIQOT METODLARI KLAFFIKATSIYASI.**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Saidova Sevara**

**Ilmiy rahbar: Oymatova Dilorom Ruzimurotovna**

**Anotatsiya:** Ushbu tezisdada psixologik tadqiqot metodlarining ilmiy asoslangan klassifikatsiyasi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot metodlarini empirik, nazariy va amaliy guruhlarga ajratish mezonlari tahlil qilingan. Har bir metodning afzalliklari, cheklovlar hamda qo'llanilish sohalari bat afsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologik metod, tadqiqot, empirik metod, nazariy metod, eksperiment, kuzatish, klassifikatsiya.

**Аннотация:** В данном тезисе представлена научно обоснованная классификация методов психологического исследования. Проанализированы критерии разделения методов на эмпирические, теоретические и прикладные группы. Подробно раскрыты преимущества, ограничения и области применения каждого метода.

**Ключевые слова:** психологический метод, исследование, эмпирический метод, теоретический метод, эксперимент, наблюдение, классификация.

**Annotation:** This thesis presents a scientifically grounded classification of psychological research methods. The criteria for dividing research methods into empirical, theoretical, and practical groups are analyzed, and the areas of application, advantages, and limitations of each method are thoroughly discussed. This approach contributes to a more reasoned and effective selection of methods in psychological research.

**Keywords:** psychological method, research, empirical method, theoretical method, practical method, experiment, observation, classification.

**Kirish:** Psixologiya fanida tadqiqot metodlari amal qilinadigan asosiy nazariy printsiplarga va psixologiya hal qiladigan konkret vazifalarga bog'liqdir. O'rganilayotgan predmet va hodisalar qarama-qarshi ziddiyatli jarayonlar mavjud deb qarashni tushunish

zarurligidan kelib chiqadi. Hozirgi vaqtida psixologiyada XIX asrda vujudga kelgan, lekin dastlabki ildizlari qadimgi yunon madaniyati tarixiga borib qadaladigan qator nazariyalar bor. Ularning eng ko'p tarqalganlari quyidagilardir: biogenetik nazariya (V. Shtern), sosiogenetik nazariya (K. Levin), bixevoiristik nazariya (E. Torndayk), psixoanaliz nazariyasi (Z. Freyd) va boshqalardir.

Psixologiyaning asosiy metodlari. B. G. Ananev psixikani o'rganish metodlarini to'rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishslash yoki statistik, natijalarni sharxlash yoki interpretasiya metodlari guruqlariga ajratadi. Tashkiliy guruh o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko'p qirrali) deb atalgan turlarini oladi. Qiyoslash turi umumiy psixologiyada, sosial psixologiyada, medisina, sport, yuridik psixologiyada keng ko'llaniladi. Longityud metodi bilan bir holatni uzoq vaqt kuzatish, birdaniga bir necha sinaluvchini tekshirish, qiyoslash maqsadida qo'llaniladi. Nemis olimi V. Shtern, frantsuz olimi R. Zazzo, rus olimlari N. A. Menchinskaya, A. N. Gvozdev, N. S. Leytis, V. S. Muxina va boshqalar bu usuldan keng foydalandilar. Bu usulda kuzatish "ona kundaligi" singari nomda ham atalishi mumkin.

Psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tadqiqot metodlari empirik metodlar guruhidir. Empirik (amaliy ) metodlar guruhiga kuzatish, suhbat, test, eksperiment (tajriba), Biografiya, sosiometriya usullari kiradi. Kuzatish metodi tashqi ob'ektiv va sub'ektiv (o'z-o'zini) o'rganishga imkon beradi. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak: 1) kuzatish maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) kuzatish ob'ekti tanlanadi; 3) sinaluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi; 4) tadqiqot vaqtি rejalashtiriladi; 5) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi; 6) qaysi faoliyat kuzatilishi belgilab olinadi; 7) kuzatish shaqli (yakka, guruhiy, jamoaviy) belgilanadi; 8) kuzatishni qayd etib borish vositalari (kundalik, kino-video, foto, magnit yozuvi va boshqalar).

Suxbat. Inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob'ekti va sub'ektiv tanlanadi, ma'ruzasi, vaqtি, joyi aniqlanadi, yakka, guruhiy va jamoa bilan bog'liq savol-javob tartibi tayyorланади. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir.

Test. Test-inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini. Irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala-topshiriq, misol, masala, jumboqlar, boshqotirmalar ham test deb atalishi mumkin.

Eksperiment metodi. Yangi psixologik faktlarga ega bo'lishning ob'ektiv usullaridan biri - eksperiment metodidir. Kuzatishdan farqi, eksperiment o'tkazuvchi sinalayotgan faoliyatga faol aralashuvi, sun'iy vaziyat paydo qilinishi mumkin. Bu metod inson psixikasini chuqur, aniq tadqiq qilishda eng muhim hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shaqlanishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi.

Laboratoriya (klinika) metodi ko 'pincha individual (goho guruxiy) shaqlida sinaluvchilardanyashirmay, maxsus psixolog asbob-uskunalar, yo' l-yo 'riqlar, tavsiyalarlar, ko' rsatma va ilovalardanfoydalanib olib boriladidir. Inson psixikasidagi o'zgarishlarini aniklaydan detektorlari, elektron va radio o'yinlari, Sekundomer, refleksometr, anomaloskop, taxistaskop, audometr, esteziometr, elekktrotiogramma, elektroentse-falogram kabilidan ham foydalaniadi.

Anketa metodi. Anketa odatda uch xil tuziladi. Birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinci xilida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xili anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi.

Sosiometriya metodi. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emosional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sosiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatlarda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matrisa, grafik, sxema, jadval shaqlida ifodalanadi.

Psixologiya tadqiqot metodi tushunchasi aniq ilmiy psixologik muammoni hal etishning maxsus metodikasi ma'nosida ham ishlatalishi mumkin. Ana shu konkret metodikalarda o'z-o'zidan ravshanki metodologik printsiplar amalga oshiriladi va faqat

mazkur muammo uchun emas, balki bilishning boshqa ko'plab muammolari uchun ham umumiy bo'lgan usullari yuzaga chiqadi.

Xulosa: Psixologik tadqiqot metodlarining tasnifi, ularning nazariy asoslari va qo'llanilish sohalarini chuqur tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida metodologik yondashuvlarning naqadar muhim ekanini ko'rsatdi. Psixologiyada qo'llaniladigan metodlar – empirik, nazariy va amaliy – o'zaro bog'liq bo'lib, har biri psixik hodisalarni o'rGANISHDA o'ziga xos vazifani bajaradi. B. G. Ananev taklif qilgan metodlar klassifikatsiyasi, ayniqsa, psixologik jarayonlarni kompleks tarzda o'rGANISHGA imkon beradi. Kuzatish, suhbat, test, eksperiment, sosiometriya va anketa singari usullar psixologik hodisalarni har tomonlama yoritishda qo'llaniladi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:**

- 1.** Umumiyl psixologiya A. V. Petrovskiy tavririda, Toshkent 1992 yil
- 2.** Kazakov V. G., Kondratyeva L. L. psixologiya, M. 1989
- 3.** M. V., Domashenko I. A. psixologiya bo'yicha Atlas, M. 1990
- 4.** Nemov R. S. psixologiya, M. 1990, (rus tilida)
- 5.** G'oziyev E. psixologiya, jild 1994, 13-31.
- 6.** Rogov E. I. amaliy psixologning doska kitobi. M. 1999 yil